

O'RTA MAKTABLARDA MASHRAB G'AZALLARI MISOLIDA LAFZIY SAN'ATLARNI O'RGATISH

Abdiyev Rajabboy Axmedovich

Toshkent davlat agrar universiteti akademik litseyi

Ona tili adabiyot fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mumtoz adabiyotni o'qitishda she'riy san'atlarni to'g'ri aniqlash va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada Mashrab g'azallari asosida lafziy san'at turlari tushuntiriladi va tahlilga tortiladi. Lafziy san'atlardan namunalar Mashrab g'azallari misolida tahlil qilingan. She'riy san'atlarning badiiyatdagi vazifasi ba'zi g'azallar asosida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: she'riy san'atlar, lafziy san'at, ma'naviy san'at, ishtiyoq, nido, takrir, mukarrar, kitobot, ta'did, tardi aks.

АННОТАЦИЯ

Важно правильно идентифицировать и анализировать поэтические искусства при обучении классической литературе. становится важным.

В данной статье объясняются и анализируются виды словесного искусства на основе газелей Машраба. Примеры словесных искусств - газели Машраба. проанализировано. На примере некоторых газелей раскрывается функция поэтического искусства в искусстве.

Ключевые слова: поэтическое искусство, словесное искусство, духовное искусство, страстное, 1 восклицание, повторение, повторение, повторение, повторение, тарди акс.

ABSTRACT

It is important to correctly identify and analyze poetic arts in teaching classical literature becomes important. This article explains and analyzes the types of verbal art based on Mashrab's ghazals. Examples of verbal arts are Mashrab's ghazals analyzed. The function of poetic arts in art is revealed on the basis of some ghazals.

Keywords: poetic arts, verbal art, spiritual art, passionate, 1 exclamation, repetition, repetition, repetition, repetition, tardi aks.

Bilamizki, she'riy san'atlar badiiy ijodda muallifning g'oyaviy-badiiy maqsadini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. She'riy san'atlar asarda

obyektning obrazli ifodasini ta'minlashda xizmat qiluvchi badiiy vosita bo'lib, u badiiy adabiyotning tasviriy va ta'siriy usuli hamda majmuidir.

Talqinlar shuni ko'rsatadiki, badiiy adabiyotning tasviriy vositalari asarda muhim deb hisoblangan obrazlarni, syujetlarni misradagi ohangdorlikni, yorqinlikni, obrazlilikni ta'minlash bilan birga ular badiiy asar mohiyatini, o'ziga xos xususiyatini, ayniqsa, badiiyat tilining ta'sirchanligini oshiradi.

Ta'kidlash kerakki, Sharqda she'riyat bobida aynan she'riy san'atlardan foydalana bilish imkoniyatiga katta e'tibor berilgan. She'riy san'atlarni o'rganuvchi maxsus fan sohasi – "Ilmi sanoyi" ("San'at ilmi") va "Ilmi balog'a" ("Balog'at ilmi") shakllangan bo'lib, bu sohaga bo'lgan qiziqish hozirgi zamon adabiyotshunosligida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning ushbu maqolamiz ham shu sohaning rivojlanishiga ma'lum ma'noda bo'lsa ham xizmat qiladi deb o'ylaymiz.

She'r ilmida so'zning ma'no imkoniyati, ma'no nozikligi va uning ma'no jihatdan tovlanishi bilan bog'liq she'riy san'atlar jami ma'naviy san'atlar deb yuritiladi. Ular: iyhom, faxriya, irsoli masal, tashxis, intoq, tazod, husni ta'lil, ruju, tazmin, tanosib, tajnis, laf va nashr kabilardir. So'zlarning tovush jihati bilan bog'liq barcha she'riy san'atlarni o'z ichiga olgan soha lafziy san'atlar deb yuritiladi. Uning tardi aks, tasdir, takrir, tadrij, tasbe, tarse, ishtiyoq, raddi matla, mukarrar, nido kabi bir qancha ko'rinishlari mavjud. Demak, ular ilmda matn badiiyatini oshirishga xizmat qiluvchi she'riy vositalardir. Bu borada Attoullah Husayniy shunday deydi: "Lafziy go'zallikning asosi uldurkim, alfozi ma'nog'a tobe qilg'aylar", ya'ni, uning fikricha, shakliy barnolik mazmun go'zalligining voqe bo'lishiga xizmat qiladi. Shu yerda aytish kerakki, misrada qo'llanilgan har qanday lafziy san'at ko'proq matn shakliga e'tibor qaratgan holda uning uslubiga ham ta'sir qiladi, qolaversa, uning bezagi sifatida ma'no tovlanishi uchun xizmat qiladi. Ayni paytda misradagi asl ma'no ham e'tibordan chetda qolmaydi.

Mumtoz she'riy matnlar bilan ishlash jarayonida ma'naviy san'atlarga nisbatan lafziy san'atlarni o'rgatishda o'quvchilar biroz qiyinchilikka duch kelishadi. Buning sababi she'riy san'atlarni, ularning mohiyatini ilm sifatida to'g'ri idrok qilmaslik bilan bog'liq. Aytmoqchimizki, matndagi she'riy san'atlarni tahlil qilishdan oldin, avvalo, shu san'atlarning o'zi haqida chuqurroq ta'lim berish kerak bo'ladi.

Mazkur maqolamizda o'zining xalqona, sodda, ravon shu bilan birga chuqur ma'noga egaligi bilan abadiyatga daxldor bo'lgan Boborahim Mashrab she'riyatidagi lafziy san'atlar borasida ayrim tahlillarimizni keltiramiz. Mashrabning umrboqiy she'riyatini ma'naviy san'atlar bilan bir qatorda bir necha lafziy san'atlar ham bezab turadi.

Ishtiyoq¹ – (arabcha – yorish, bo‘lish, so‘zdan so‘zni ajratmoq) – mumtoz adabiyotdagi she‘riy san‘at, she‘r yoki nasrda bir o‘zakdan tashkil topgan so‘zlarni ishlatish. Ishtiyoq san‘atida nasrda bir jumla ichida, she‘riyatda bir bayt, ruboiy, tuyuq, g‘azal yoki qasidada o‘zakdosh so‘zlar ikki yoki undan ortiq o‘rinda keladi. Bunda shunchaki o‘zakdosh so‘zlar bilan she‘rga bezak berish emas, ma‘no aloqadorligi asosida mazmuni tiniq va teran, xushohang ifodalash kabi estetik samaralar ko‘zlanadi. Mashrab she‘riyatida ishtiyoq namunalari ko‘p uchraydi:

Zulfiing seni bu jonima yuz domi balodur,
Jonim qushi **sayd** o‘ldi chu **sayyod** eshigingda.

Muhabbat shavqida, do‘stlar, yurokim tah-batah qondur,
Nechuk oh-u **navo** aylay, avvaldin **benavo** bo‘lsam.

Hamma **ushshoqi** sodiqni saning **ishqing** xarob aylar,
Qabul ayla, ayo dilbar, qo‘yningda bir gado bo‘lsam.

Yuqorida keltirilgan sayd, sayyod, navo, benavo, ushshoq, ishq kabi so‘zlar o‘zakdosh

so‘zlardir va ushbu so‘zlar she‘rning ta‘sir kuchini va xushohangligini ta‘minlashga xizmat qilgan.

Nido² (arabcha – qichqiriq, chaqiriq, undov) boshqa she‘riy san‘atlardan bevosita inson qalbidagi his va hayajonlarni ochiq va kuchli tasvirlab bera olish imkoniyati bilan ajralib turadi. Insonning ichki tuyg‘ulari po‘rtana misoli junbushga kelganida lirik qahramon olamdagi har qanday narsa-hodisalarga, tabiatdagi istalgan narsaga, o‘zining qalbiga, suhbatdoshiga murojaat etishi mumkin. Masalan, Oshiq Yorga yetish g‘ami bilan yashaydi, lekin ayni paytda undan ayriliq tufayli alam chekadi. Bu ikki azobli tuyg‘udan ko‘ngilda bir fig‘on paydo bo‘ladiki, yurakni o‘rtay boshlaydi va beixtiyor do‘stlarga nido qiladi:

Nechuk toqat qilay, **do‘stlar**, bu dard ila bo‘lub hayron,
G‘amim boshqa, alam boshqa, yuragimni fig‘on o‘rtar

Keyingi baytda ham shu holatni kuzatishimiz mumkin. Oshiqdan uni shu ko‘yga solgan ma‘shuqa ta‘rifini so‘raydilar. Lekin unda yorning vasfini qilgani til qani?

¹ Salayev F. Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi. Toshkent. 2010. B.91.

² To‘xliyev B. Karimov B. Usmonova K. Adabiyot (10 – sinflar uchun darslik). Toshkent. 2017. B. 181.

Chunki oshiqning butun borlig‘ini asir etgan Yor (Olloh) ta‘rif-u tavsifdan ustun zotdir. Shuning uchun til Uning vasfida lol, bu ilojsizlik tufayli ko‘z alamli yoshlar to‘kadi va yorga murojaat qiladi:

Qay-u til birla, **ey jono**, sening vasfing bayon aylay,
Tilim lol-u ko‘zim giryon, so‘ngaklarni nihon o‘rtar.

So‘zlar takrori she‘riyatda, ayniqsa, fikriy siqqlik omilidir. Biroq o‘rni bilan takrorlangan so‘zlar ko‘pincha badiiy ta‘sirchanlikning muhim sharti bo‘la oladi. Sharq poetikasida shuning uchun ham so‘zlar takroriga oid bir qancha san‘atlar vujudga kelgan. Mashrab ijodida juda ko‘p uchrovchi so‘zlar takroriga asoslangan lafziy san‘atlar ko‘p uchraydi.

Takrir¹ (arabcha – takrorlash) san‘ati – muayyan she‘rda u yoki bu so‘zni takror qo‘llashdir.

Ishqini zulfiqoriman, Mashrabi beqarori man,
Xizru Masehni yoriman, ore, **manam, manam.**

Guharrezlik qilay desang, hammani kulduray desang,
Chu Mashrabdek bo‘lay desang, **qalandar bo‘l, qalandar bo‘l.**

Mashrab ijodiga mansub ushbu baytlardagi “manam” va “qalandar bo‘l, qalandar bo‘l” so‘zlarini takrorlashdan maqsad, o‘sha so‘zning ma‘nosini, tub mohiyatini ta‘kidlash, unga o‘quvchi diqqatini tortishdir.

Mukarrar² (arabcha – takror-takror; qayta-qayta) san‘atida, V. Rahmonovning yozishicha, shoir baytda takror-takror bo‘luvchi so‘zni ishlatadi. Takrirdan farqli ravishda mukarrar so‘zlar orasiga chiziqcha qo‘yiladi va takror so‘zning ikkinchisi nutqdagi “xo‘p, juda, rosa” kabi kuchaytiruvchi so‘z vazifasini bajaradi:

Borur miskin bu Mashrab gul yuzingni ko‘rgali, ammo
Ko‘rolmay orazing yig‘lab turar **ohista-ohista.**

Ishq o‘tiga o‘rtanib devona bo‘lgan o‘zginam,
Kuya-kuya kul bo‘lub biryona bo‘lgan o‘zginam.

Ta‘did³ to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni klassik poetika haqidagi manbalarning ko‘plarida uchratish mumkin. Bu ma‘lumotlarda u turli nomlar bilan yuritilgan.

¹ Salayev F. Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi. Toshkent. 2010. B.244.

² Umurov H. Adabiyot qoidalari. Toshkent. 2011. B. 121.

³ Salayev F. Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi. Toshkent. 2010. B.258.

Masalan, ta'zil ("Badoye us-sanoe"), shumur ("San'athoyi bade'yi dar she'ri tojikiy"), e'dod, ta'did, te'dod ("Ilmi bade dar zaboni forsiy") shular jumlasidandir. Ta'didning go'zal namunalarini Mashrab ijodida ham kuzatish mumkin:

Sanamning shavqida tinmay yurub ovvora Mashrabman,
Ko'zi yoshlig', qadi xamlig', dili sadpora Mashrabman.

Ikkinchi misraga e'tibor berilsa, xuddi birinchidan, ikkinchidan, uchinchidan tarzidagi sanoq ohangi seziladi. Ayni mana shu tarz unga alohida ta'sirchanlik bag'ishlaydi.

Ta'didning muhim xususiyatlaridan biri shuki, u fikriy rivojni, ketma-ketlikni, tadrijiylikni anglatadi:

Gahi bulbul **dar afg'onman**, gahi chun **qumri nolonman**,
Gahi **chug'zi parishonman**, vatan vayrona yig'larman.

Ta'did grammatik o'zaro bog'lanishlarning bir xil turidan ketma-ket foydalanish orqali ham yuzaga chiqishi mumkin, bu esa she'riy musiqani kuchaytirib yuboradi. Mashrab ijodiga mansub quyidagi baytda aynan shu holat aks etgan:

Tikansiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz hunar bo'lmas,
Riyozat tortmag'uncha yor vaslig'a yetib bo'lmas.

Kitobat¹ – she'riyatda keng qo'llaniladigan san'atlardan biri bo'lib arab alifbosi harflari shaklidan lirik va epik timsollar yaratishda foydalaniladi:

“**Alif**”ek jon arosinda niholi qomatin asrab,
G'amidin oqibat qaddimni “**nun**” yanglig' duto qildi.

Baytda ma'shuqa qomati tik holatdagi “alif” harfiga qiyoslanib, g'am-anduhida oshiqning qaddini “nun” kabi duto qilganligi obrazli tarzda kitobat san'ati yordamida ifoda etilmoqda.

Tardi aks² – (arabcha – teskari qilib takrorlash) – she'rning birinchi misrasida keltirilgan ikki so'z yoki so'z birikmalarini keyingi misrada o'rnini almashtirib takrorlashdan

iborat she'riy san'atdir. Mashrabning

¹ O'sha manba. B. 97.

² To'xliyev B. Karimov B. Usmonova K. Adabiyot (10 – sinflar uchun darslik). Toshkent. 2017. B. 179.

Zilol chashmasidin Xizr topdi umri tavil,
Manga baqolig‘ uchun **chashmayi ziloling** och.

Baytidagi zilol chashmasidin hamda chashmayi ziloling tardi aks san‘atini hosil qilgan

birikmalardir.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, Mashrab o‘z badiiy niyatini ifodalashda lafziy san‘at turlaridan unumli foydalangan. Bu shoir she‘rlarining ma‘no qirralarini yanada mukammallashtirib, unga shakliy va zohiriy go‘zallik baxsh etgan.

Xulosa sifatida aytish joizki, lafziy san‘atlarni, umuman, so‘z san‘atlarini o‘rganish va o‘rgatish o‘qituvchidan qo‘shimcha izlanish, tafakkur va alohida tayyorgarlikni talab etadi. Zotan, bugungi globallashuv jarayonida o‘sib kelayotgan yosh avlod ongida mumtoz asarlarning ma‘nosini tushuna olish, so‘zning nozik qirralaridan bahramand bo‘lish, umuman, adabiyotning estetik va didaktik kuchini his etish orqali komillikka intilish kabi tuyg‘ularni rivojlantira olish bugungi kun adabiyot muallimining dolzarb vazifalaridan biri bo‘lmog‘i lozim. Ayniqsa, bugungi kun til va adabiyot o‘qituvchilaridan she‘riyatga havas, adabiyotga bo‘lgan muhabbatni tamoman yaxshi tomonga o‘zgartirgan holda, badiiy adabiyotga yangicha qarash, ilmiy va adabiy did bilan yondashmoqlikni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Asallayev A, Rahmonov B, Musurmonqulov F. She‘r san‘atlari. Andijon, 2009.
2. Mashrab. Devon. (Tadqiq qiluvchi, qo‘lyozma va bosma manbalardan jamlab nashrga tayyorlovchi, lug‘atlar hamda izohlar muallifi. Jaloliddin Yusufiy). Yangi asr avlodi, 2006.
3. Hojiahmedov A. She‘riy san‘atlarni bilasizmi? T., Sharq, 2001.
4. Quronov D va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. T. Akademnashr, 2010.
5. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T., “O‘zbekiston”, 2002.
6. Umirov H. Adabiyot qoidalari. T., “O‘qituvchi” nashriyoti, 2011.
7. To‘xliyev B, Ra‘no Mirsamiqova va boshqalar. Adabiyot (Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o‘quvchilari uchun). T., “Cho‘lpon” shashriyoti, 2007.
8. To‘xliyev B, Karimov B va boshqalar. Adabiyot (10-sinflar uchun). “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” nashriyoti, 2017.
9. Salayev F. Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi. Toshkent. 2010.